

ATAXANOV Xamza Ataxanovich

Oriental universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: khamzaatakhonov@gmail.com

YOSHLAR ORASIDA RADIKALLASHUVNING OLDINI OLIISHDA MA'RIFIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО ПОДХОДА В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ РАДИКАЛИЗАЦИИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

THE IMPORTANCE OF AN ENLIGHTENMENT APPROACH IN PREVENTING RADICALIZATION AMONG YOUTH

Annotatsiya. Maqolada yoshlar orasida radikallashuvning oldini olishda ma'rifiy yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Radikallashuvning ma'naviy, g'oyaviy va axborot omillari ochib berilib, unga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda oila, mahalla, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik tarbiyasining o'rni va profilaktik imkoniyatlari keng yoritilgan. Yoshlar orasida radikallashuvning oldini olishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan.

Tayanch iboralar: radikallashuv, ma'rifiy yondashuv, mafkuraviy immunitet, ma'naviy tahdid, yoshlar tarbiyasi, media savodxonlik, fuqarolik pozitsiyasi.

Аннотация. В статье анализируется теоретическое и практическое значение просветительского подхода в предотвращении радикализации среди молодежи. Раскрываются духовные, идеологические и информационные факторы радикализации, а также широко освещаются роль и профилактический потенциал семьи, махалли, системы образования, средств массовой информации и гражданского воспитания в формировании идеологического иммунитета против нее. Проанализированы приоритетные направления предотвращения радикализации среди молодежи.

Ключевые слова: радикализация, просветительский подход, идеологический иммунитет, духовная угроза, воспитание молодежи, медиаграмотность, гражданская позиция.

Abstract. The article analyzes the theoretical and practical significance of the enlightenment approach in preventing youth radicalization. It reveals the spiritual, ideological, and informational factors of radicalization, and extensively highlights the role and preventive capabilities of the family, mahalla, education system, mass media, and civic education in forming an ideological immunity against it. The priority areas for preventing radicalization among youth are analyzed.

Keywords: radicalization, enlightenment-based approach, ideological immunity, spiritual threat, youth education, media literacy, civic position.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida yoshlar ongiga turli g'oyaviy, mafkuraviy hamda axborot ta'sirlarining kuchayib borishi jamiyat oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida radikallashuv kayfiyatlarining yuzaga kelishi, ularning turli yot qarashlar, mutaassib talqinlar va buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolish ehtimoli mazkur masalani ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etadi. Chunki radikallashuv nafaqat alohida shaxs dunyoqarashidagi og'ish, balki jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik va ma'naviy taraqqiyotga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Yoshlar tabiatan izlanishga moyil, yangilikka intiluvchan va ta'sirchan ijtimoiy qatlam bo'lgani sababli ular turli mafkuraviy xurujlarning asosiy nishoniga aylanishi mumkin. Ayniqsa, ma'naviy bo'shliq, mustaqil fikrlash ko'nikmasining yetarlicha shakllanmaganligi, diniy va dunyoviy bilimlar o'rtasidagi nomutanosiblik, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi nazoratsiz axborot oqimi radikallashuv uchun qulay muhit hosil qiladi. Shu bois, bunday tahdidlarga qarshi kurashishda kuch ishlatishga asoslangan yondashuvdan ko'ra, ong va tafakkurga ta'sir etuvchi ma'rifiy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ma'rifiy yondashuv yoshlarni turli yot g'oyalardan himoya qilishda ularda sog'lom dunyoqarash, tanqidiy tafakkur, mafkuraviy immunitet, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Aynan shu jihati bilan u radikallashuvning oldini olishning eng samarali ijtimoiy-ma'naviy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

ASOSIY QISM

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli mafkuraviy, g'oyaviy va axborot xurujlarining kuchayib borayotgani jamiyat ma'naviy xavfsizligi uchun jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Ma'naviy tahdidlar milliy ma'naviyatga nisbatan ruhiy, axloqiy va estetik bosim ko'rinishida namoyon bo'lib, ayniqsa internet, ijtimoiy tarmoqlar va televideniye orqali insonlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan uzluksiz mafkuraviy kurashni kuchaytirmoqda [4:19; 8:181–182]. Shu bois radikallashuvni ham aynan ana shu ma'naviy-tahdidij jarayonlarning eng xavfli ko'rinishlaridan biri sifatida talqin qilish mumkin.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, radikallashuv – bu shaxs ongida murosasizlik, mutaassiblik, yot g'oyalarga mutlaq ishonch va ijtimoiy voqelikni biryoqlama qabul qilish holatining shakllanishidir. “Tahdid” inson hayotiy faoliyatini izdan chiqaruvchi, davlat va jamiyat asoslarini zaiflashtirishga qaratilgan salbiy omillar ta'siri natijasida yuzaga keluvchi holat sifatida izohlanadi [10:31]. Shuningdek, “ma'naviy tahdid” insonning ruhiy dunyosini izdan chiqarish, uning e'tiqodi va irodasini susaytirish hamda ongiga mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar orqali ta'sir ko'rsatishga qaratilgan qarashlar majmui sifatida talqin etiladi [4:19].

Radikallashuvning xavfi, avvalo, uning tashqi harakatdan oldin insonning ichki dunyosida boshlanishidadir. Ya'ni bu jarayon dastlab fikrda, dunyoqarashda va qadriyatlar tizimida namoyon bo'ladi. Inson ma'naviy jihatdan zaiflashgan, mustaqil fikrlash ko'nikmasi yetarli shakllanmagan, hayotiy maqsadi aniq bo'lmagan holatda turli yot ta'sirlarga tezroq beriladi. Siyosiy madaniyatsizlik va ma'naviy savodsizlik ma'naviy tahdid uchun “ozuqa” bo'lib qolishi ta'kidlangan bo'lib, bu fikr radikallashuvning ildizi ko'pincha jaholat, ma'naviy bo'shliq va tanqidiy tafakkurning sustligida ekanini ko'rsatadi [8:181–182].

Yoshlar orasida radikallashuvga olib keluvchi omillarni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Ichki omillarga ma'naviy bo'shliq, o'zlikni anglashdagi sustlik, diniy va dunyoviy bilimlarning yetarli emasligi, oilaviy nazoratning pasayishi, bo'sh vaqtning mazmunsiz o'tishi, shuningdek, ijtimoiy befarqlik kiradi. Tashqi omillar esa internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalar,

ommaviy madaniyat niqobi ostidagi axloqiy buzilishlar, turli mafkuraviy markazlarning yoshlar ongiga qaratilgan ta'siri bilan bog'liqdir. Bugungi kunda yovuz kuchlar aynan yoshlarning qalbi va ongini egallash, ularga buzuvchi g'oyalar, diniy ekstremizm va axloqsizlik qarashlarini singdirishga intilayotgani alohida qayd etilgan [1:592].

Shu ma'noda, radikallashuvni faqat diniy ekstremizm yoki siyosiy mutaassiblik bilan cheklab tushuntirish yetarli emas. U, avvalo, shaxsning ma'naviy immuniteti zaiflashuvi natijasida paydo bo'ladigan murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisadir. Agar yosh insonda mustahkam e'tiqod, sog'lom dunyoqarash, tanqidiy fikrlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat shakllanmagan bo'lsa, u turli manipulyativ g'oyalarning ta'siriga tushib qolishi mumkin. Demak, radikallashuvning oldini olish uchun, eng avvalo, uning ildiz otishiga imkon berayotgan ma'naviy, tarbiyaviy va axboriy omillarni chuqur tahlil qilish zarur.

Yoshlar orasida radikallashuvning oldini olishda ma'rifiy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki radikallashuv, eng avvalo, inson ongida shakllanadigan g'oyaviy og'ish bo'lib, unga qarshi kurash ham avvalo ong, tafakkur va dunyoqarash darajasida olib borilishi zarur. Bu jihatdan ma'rifiy yondashuv yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilishda ularning bilim saviyasi, tanqidiy fikrlashi, ma'naviy barqarorligi va mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan tizimli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi [4:19; 8:181–182].

Ma'naviy tahdid mohiyatini ochishda “insonning ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar” tarzidagi ta'rif muhim metodologik ahamiyatga ega [4:19]. Aynan shu yondashuv radikallashuvni ham yoshlarning ongiga, e'tiqodiga va qadriyatlar tizimiga zarar yetkazuvchi mafkuraviy ta'sir shakli sifatida tushunish imkonini beradi.

Ma'rifiy yondashuvning eng muhim vazifasi yoshlar qalbi va ongida bo'shliq yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikdir. Chunki bunday bo'shliq mavjud joyda mutaassiblik, murosasizlik va yot g'oyalar tezroq ildiz otadi. Shu ma'noda siyosiy madaniyatsizlik, ma'naviy savodsizlik ma'naviy tahdid uchun ozuqa bo'lib qolishi haqidagi fikr radikallashuvning ildizi ko'pincha jaholat, ma'naviy zaiflik va mustaqil fikrlashning sustligida ekanini ko'rsatadi [8:181–182].

Radikallashuv profilaktikasida ma'rifiy yondashuvning nazariy mohiyati shundaki, u yoshlarni shunchaki ogohlantirish bilan cheklanmaydi, balki ularda ongli qarshilik salohiyatini shakllantiradi. Boshqacha aytganda, ma'rifatli yosh radikal chaqiriqqa tasodifan berilib ketmaydi, balki uning asl mazmunini anglaydi, tahlil qiladi va unga nisbatan mustaqil munosabat bildiradi. Shu jihatdan ma'rifiy yondashuv passiv himoya emas, balki faol mafkuraviy qarshilik mexanizmidir.

Bu borada "mafkuraviy immunitet" tushunchasi alohida o'rin tutadi. U "tashqaridan kirib keladigan" hamda ichkarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan "buzg'unchi siyosiy oqimlar" va g'oyalarga qarshi tura olish salohiyati sifatida izohlanadi [7:92]. Demak, radikallashuvga qarshi ma'rifiy kurashning asosiy natijasi yoshlar ongida aynan mana shunday mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir.

Ma'rifiy profilaktika samaradorligi uning uzviy va tizimli bo'lishiga bog'liq. Bu jarayonda oila, mahalla, ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yaxlit ma'naviy-tarbiyaviy muhit mavjud bo'lmagan sharoitda yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan ishlar parchalanib ketadi va kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli ma'rifiy yondashuvni faqat tarbiyaviy usul emas, balki keng ijtimoiy-ma'naviy tizim sifatida tushunish lozim.

Radikallashuv profilaktikasida ma'rifiy yondashuv uch tayanch tamoyilga asoslanadi: birinchidan, jaholat va ma'naviy bo'shliqqa qarshi bilim va tafakkur bilan kurashish; ikkinchidan, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish; uchinchidan, ma'rifiy-tarbiyaviy ta'sirni ijtimoiy institutlar uyg'unligida olib borish. Ana shu tamoyillar yoshlar orasida radikallashuvning oldini olishning eng muhim nazariy asosini tashkil etadi.

Yoshlar orasida radikallashuvning oldini olish birgina huquqiy yoki tashkiliy choralar bilan cheklanmaydi. Bu borada oila, mahalla, ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari o'zaro uyg'unlikda faoliyat olib boragandagina barqaror natijaga erishish mumkin. Ma'rifiy profilaktikaning kuchi ham aynan shunda: u yoshni faqat nazorat qilmaydi, balki uning dunyoqarashi, qadriyatlarini va hayotiy pozitsiyasini shakllantiradi.

Avvalo, oila yosh shaxs ma'naviy qiyofasining dastlabki va eng muhim shakllanish makonidir. Oilada bola yaxshilik va yomonlik, halollik va mas'uliyat, hurmat va sadoqat kabi qadriyatlarini o'zlashtiradi. Shu bois "oilalari haqiqiy ma'naviyat o'chog'i" ekani haqidagi fikr radikallashuv profilaktikasi uchun ham to'la ahamiyatga ega [4:54; 11:18]. Chunki oiladagi sog'lom muhit, otalari nazorati, bobo-buvilar nasihati va avlodlararo tarbiya uzviyligi yoshni turli yot qarashlar ta'siridan asraydi. Aksincha, oilaviy beqarorlik, ma'naviy e'tiborsizlik va tarbiyadagi bo'shliq radikal g'oyalar kirib kelishi uchun qulay zamin yaratadi.

Mahalla ham ma'rifiy profilaktikaning muhim instituti hisoblanadi. U yoshni jamiyatdan uzilib qolishdan saqlaydi, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi va turli salbiy oqimlarga qarshi jamoaviy immunitet hosil qiladi. Mahalla doirasida yoshlarning qiziqishi, muammosi, bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotgani, kimlar bilan muloqot qilayotgani ko'proq nazorat ostida bo'ladi. Shu ma'noda mahalla faqat hududiy birlik emas, balki ma'naviy himoya muhiti hamdir. Ayniqsa, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalashda mahallaning imkoniyatlari kengdir. Bu borada oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanishi bejiz emas [3].

Ta'lim tizimi esa radikallashuvga qarshi ma'rifiy kurashning markaziy bo'g'inidir. Chunki aynan ta'lim jarayonida yoshlarning tanqidiy tafakkuri, mustaqil fikrlash qobiliyati, media savodxonligi va sog'lom e'tiqodi shakllanadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar bu borada ayniqsa muhim, chunki ular yoshlarni jamiyatdagi murakkab jarayonlarni anglash, axborotni tahlil qilish va yot g'oyalarning asl mohiyatini farqlashga o'rgatadi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim nafaqat bilim beruvchi tizim, balki mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi ijtimoiy institutdir. Yoshlar orasida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish vazifasining qayta-qayta ta'kidlanishi ham aynan shu bilan bog'liq [7:92].

Ommaviy axborot vositalari va internet makoni bugungi kunda yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatishda nihoyatda kuchli vositaga aylangan. Shu sababli ular ma'rifiy profilaktikada ikki xil rol o'ynashi mumkin: biri ijobiy, ya'ni ma'naviy-ma'rifiy kontent, tanqidiy fikrlash va ogohlilikni

kuchaytirish; ikkinchisi salbiy, ya'ni radikal, mutaassib yoki axloqiy buzilishlarni targ'ib qiluvchi materiallarning tarqalishi. Yoshlarning internetdan foydalanish madaniyati yetarlicha shakllanmagani, axborotga nisbatan ishonuvchanlikning yuqoriligi va media makondagi zararli ta'sirlarning kuchayib borayotgani bu yo'nalishda ma'rifiy ishlarni yanada kuchaytirishni talab qiladi. Shuning uchun aholining internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish va yoshlarning g'oyaviy hamda axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish masalalari bugun dolzarb vazifalardan biridir [3; 5:28–29; 6].

Oila, mahalla, ta'lim va OAV ma'rifiy profilaktikaning o'zaro bog'liq bo'lgan to'rt tayanch ustunidir. Ularning har biri alohida emas, balki uzviy hamkorlikda faoliyat olib borgan taqdirdagina yoshlar orasida radikallashuvning oldini olish borasida samarali natijaga erishish mumkin.

Yoshlar orasida radikallashuvning oldini olishda ma'rifiy yondashuvni kuchaytirish bir qator ustuvor yo'nalishlarni tizimli ravishda amalga oshirishni talab qiladi. Bu yo'nalishlar, avvalo, yoshlarning ongida bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularda sog'lom e'tiqod va mustaqil tafakkurni shakllantirish, shuningdek, ularni jamiyat hayotining faol subyektiga aylantirishga qaratilishi kerak [2].

Birinchi yo'nalish — yoshlarning media va axborot savodxonligini oshirishdir. Bugungi kunda radikal g'oyalar ko'pincha internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgani bois, yoshlar har qanday axborotni tanqidiy tahlil qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Ular axborotning manbai, maqsadi va yashirin ta'sir mexanizmlarini anglay olsagina, manipulyativ da'vatlarga berilmaydi. Shu ma'noda media savodxonlik radikallashuvga qarshi ma'rifiy himoyaning eng zamonaviy vositalaridan biridir [5:28–29; 6].

Ikkinchi yo'nalish – diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini ta'minlashdir. Yoshlar diniy tushunchalarni yuzaki, norasmiy yoki buzib talqin qiluvchi manbalardan emas, balki ilmiy va ishonchli manbalardan o'rganishi kerak. Sog'lom diniy-ma'rifiy bilim yoshda mutaassiblik emas, balki bag'rikenglik, tafakkur kengligi va insonparvarlikni shakllantiradi. Jaholatga asoslangan talqinlar esa, aksincha, radikallashuvga yo'l ochadi. Demak, diniy savodxonlikni oshirish

ham ma'rifiy profilaktikaning muhim tarkibiy qismidir.

Uchinchi yo'nalish – bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etishdir. Yoshlarning maqsadsizligi, ijtimoiy hayotdan uzilib qolishi, foydali mashg'ulot bilan band bo'lmashligi radikal guruhlar uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli sport, kitobxonlik, ijodiy to'garaklar, kasbiy yo'naltirish, ilmiy va madaniy tadbirlar orqali yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli yo'naltirish zarur. Bu nafaqat ularning qiziqishini foydali faoliyatga buradi, balki ichki ruhiy bo'shliqning oldini ham oladi. Yoshlar orasida bo'sh vaqtni samarali tashkil etish, xorijiy tillarni o'rganish, kutubxona va to'garaklar faoliyatini kuchaytirish zarurligi haqidagi fikrlar ham shundan dalolat beradi [2; 6].

To'rtinchi yo'nalish – yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdir. O'z taqdirini jamiyat va Vatan taqdiri bilan bog'lay olgan yosh radikal da'vatlarga kamroq beriladi. Chunki unda daxldorlik hissi, mas'uliyat va ijtimoiy foydalilik tuyg'usi kuchli bo'ladi. Bu borada ma'rifiy ishlarda yoshlarni faqat tinglovchi emas, balki tashabbuskor va ishtirokchi sifatida jalb etish muhimdir. Faol fuqarolik pozitsiyasi yoshni yot g'oyaning obyekti emas, balki ongli ravishda qaror qabul qiluvchi shaxsga aylantiradi [2].

Beshinchi yo'nalish – oila, mahalla, ta'lim muassasasi va davlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashdir. Radikallashuvga qarshi kurash faqat bir institut zimmasiga yuklatilsa, uning samarasi cheklangan bo'ladi. Shu sababli tarbiyaviy, tashkiliy va ma'naviy ishlar yagona maqsad asosida olib borilishi zarur. Ayniqsa, yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini erta aniqlash, xavfli tendensiyalarni kuzatib borish va shu asosda tezkor ma'rifiy choralarni ko'rish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi [2; 3].

Yoshlar orasida radikallashuvning oldini olishda ma'rifiy yondashuvni kuchaytirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida media savodxonlik, sog'lom diniy-ma'rifiy bilim, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda ijtimoiy institutlar hamkorligini rivojlantirishni ko'rsatish mumkin. Aynan shu yo'nalishlar yoshlar ongini yot g'oyalar ta'siridan himoya qilishning eng samarali yo'lidir [9:73].

XULOSA

Yoshlar orasida radikallashuvning oldini olish bugungi kunda jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik va ma'naviy taraqqiyot bilan bevosita bog'liq dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayonni faqat huquqiy yoki ma'muriy choralar bilan cheklab bo'lmaydi. Chunki radikallashuv, avvalo, yoshlar ongida, dunyoqarashida va qadriyatlar tizimida yuz beradigan g'oyaviy og'ish sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli unga qarshi eng samarali kurash yo'li ma'rifiy yondashuv asosida amalga oshiriladigan profilaktik faoliyatdir.

Ma'rifiy yondashuv yoshlarni yot va buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishda bilim, tafakkur, sog'lom e'tiqod, tanqidiy fikrlash va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, oila, mahalla, ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalarining uzviy hamkorligi yoshlarning ma'naviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Yoshlar qalbi va ongida bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalash radikallashuvning oldini olishning eng muhim shartidir.

Radikallashuvga qarshi ma'rifiy kurashning samaradorligi yoshlarning faqat bilimli bo'lishi bilan emas, balki ularning ijtimoiy mas'uliyatli, mustaqil fikrlaydigan, axborotni tahlil qila oladigan va Vatan taqdiri bilan o'z taqdirini bog'laydigan shaxs sifatida shakllanishi bilan belgilanadi. Ana shu jihatlarda ma'rifiy yondashuvni yoshlar orasida radikallashuvning oldini olishning eng muhim ijtimoiy-ma'naviy mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi.

Shulardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish mumkin:

- oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim tizimida yoshlarning media savodxonligini oshirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar, seminar-treninglar va qisqa kurslarni joriy etish maqsadga muvofiq.

- oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligida yoshlar bilan manzilli ma'naviy-ma'rifiy ishlash tizimini kuchaytirish lozim.

- yoshlar orasida sog'lom diniy-ma'rifiy bilimlarni targ'ib qilish, diniy tushunchalarni ishonchli va ilmiy asoslangan manbalar orqali yetkazish ishlarini tizimli ravishda tashkil etish kerak.

- yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport, kitobxonlik, ijodiy to'garaklar, ilmiy loyihalar va fuqarolik tashabbuslarini kengaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR
RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизми қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.uz.
4. Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.
5. Дўстмухаммад Х. Ахборот – мўъжиза, жозиба, фалсафа. – Т.: Янги аср авлоди, 2013. – 28–29 б.
6. Ёшлар интернет-макон кўзгусида // Ижтимоий фикр жамоатчилиги фикрини ўрганиш маркази материаллари.
7. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 92 б.
8. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 181–182 б.
9. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – 73 б.
10. Пахрутдинов Ш. "Таҳдид" тушунчаси: назария ва амалиёт. – Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998. – 31 б.
11. Юсупов Э., Юсупов Ў. Оила – маънавият булоғи. – Т., 2003. – 18 б.
12. UNESCO. A Teacher's Guide on the Prevention of Violent Extremism. – Paris: UNESCO, 2016. – 46 p.
13. Pels T., De Ruyter D.J. The Influence of Education and Socialization on Radicalization: An Exploration of Theoretical Presumptions and Empirical Research // Child Youth Care Forum. – 2012. – Vol. 41. – P. 311–325.
14. Федоряк Н.А. Молодежь в системе обеспечения духовной безопасности российского общества: основные угрозы и стратегии их преодоления: автореф. дис. ... канд. социол. наук. – Ростов-на-Дону, 2009. – 25 с.
15. Бокша Е.А. Духовные угрозы функционированию семьи в современном российском обществе (социально-философский анализ): автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Москва, 2008.